



ART PEDAGOGIKA VA ART TERAPIYA: MOHIYATI VA TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Salimova Marjona Abduraxim qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
salimovamarjona207@gmail.com*

Xoliyorova Rushana Ikrom qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institutining 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada art pedagogika va art terapiyaning mohiyati hamda ta'limgarlar jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Art pedagogika ijodiy ta'limgarlar vositasida san'at orqali o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, art terapiya psixologik muammolarni bartaraf etish va emotsiyalar bilan barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada art terapiyaning asosiy tarmoqlari, ta'limgarlar jarayonida qo'llanilishi hamda uning samaradorligi yoritilgan. Art pedagogika va art terapiyaning integratsiyasi natijasida o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, ijtimoiy va psixologik rivojlanishi yanada samarali yo'nalishda shakllanishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: art pedagogika, art terapiya, san'at asosida ta'limgar, ijodiy tafakkuri, emotsiyalar rivojlanish, musiqaterapiya, dramaterapiya, rasm chizish terapiyasi, ta'limgarlar jarayoni, integratsiyalashgan yondashuv.

Kirish

Hozirgi kunda ta'limgarlar tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlar, jumladan, san'at bilan bog'liq metodlar tobora keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida san'at va madaniyat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4481-sonli qarorida san'atning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ta'kidlanib, ta'limgarlar tizimida san'at asoslarini chuqur o'rganish muhimligi qayd etilgan[1]. Shuningdek, "Ta'limgarlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2020-yil 23-sentabr) va Prezidentning 2022-yil 21-yanvardagi "Ta'limgarlar tizimini 2030-yilgacha



rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida ta’limda zamonaviy va ijodiy yondashuvlarni joriy etish, o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan[2,3].

Ushbu normativ hujjatlar ta’lim jarayonida art pedagogika va art terapiyaning qo‘llanilishini rag‘batlantiradi, chunki mazkur yondashuvlar nafaqat o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, balki ularning psixologik holatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Xususan, art pedagogika san’at orqali ta’lim-tarbiya berish usullari majmuasi sifatida o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va madaniy ongini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, art terapiya esa psixologik muammolarni bartaraf etish, emotsiional barqarorlikni ta’minalash va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Bugungi ta’lim jarayonida ushbu ikki yondashuvning sinergetik aloqalarini o‘rganish, ularning samaradorligini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish dolzARB masalalardan biridir. Shu sababli, maqolada art pedagogika va art terapiyaning mohiyati, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda pedagogik va terapevtik jarayonlardagi integratsiyasi tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Art pedagogika san’at asarlari, ijodiy jarayonlar va vizual ifoda orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, tanqidiy nazarini va yaratuvchanligini rivojlantirishga qaratilgan[4]. Ushbu yo‘nalishning nazariy asosi konstruktivistik pedagogika, eksperimental yondashuvlar va interaktiv ta’lim usullaridan iborat[5]. Art pedagogika orqali o‘quvchilar nafaqat san’at asarlarini yaratishni o‘rganibgina qolmay, balki ular orqali madaniy meros, tarixiy kontekst va zamonaviy ijtimoiy masalalarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

ART pedagogikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri – art terapiya bo‘lib, bu psixokorreksiya usuli hisoblanadi. “Art” – san’at, “therapy” – davolash degan ma’nolarni anglatadi va so‘zma-so‘z tarjima qilinganda "san’at bilan davolash" degan ma’noni beradi[6]. Art terapiya – ijodiy faoliyat orqali muloqotning terapevtik ta’siriga asoslangan usuldir[7].

Psixoterapiyaning nisbatan yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan art terapiya dastlab stressga uchragan bolalar bilan ishlashda qo‘llanilgan. 1938-yilda Adrian Xill



tomonidan bu atama birinchi marta ishlatilgan. U art terapiya usulini sil kasalligi bilan og‘rigan bemorlar bilan ishslashda qo‘llab, tez orada bu yondashuv keng tarqalgan.

Art terapiyaning asosiy tarmoqlari va usullari

Art terapiyaning turli yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ulardan asosiyлари quyidagilardir:

Musiqqa terapiyasi – musiqaning emotsiyal va psixologik ta’siridan foydalanish.

Magoterapiya – ertaklar asosida terapiya.

Qo‘g‘irchoq terapiyasi – qo‘g‘irchoqlar yordamida muammolarni ifodalash va bartaraf etish.

Dramaterapiya – sahnalashtirilgan rolli o‘yinlar orqali hissiy muammolarni bartaraf etish.

Rasm chizish terapiyasi – insonning ichki kechinmalarini tasvirlash orqali ifodalash va tahlil qilish[8].

Art terapiya bolalar va kattalarga o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalash imkonini beradi. Bu usul orqali ular g‘azab, quvonch, sevgi kabi his-tuyg‘ularini ifoda etishadi. Art terapiya nafaqat psixologik muammolarni hal qilishda, balki ijodiy fikrlashni rivojlanтирishda ham samarali vosita hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida art terapiyadan foydalanish

Ta’lim tizimida art pedagogika va art terapiya o‘zaro to‘qnashgan va qo‘srimcha afzalliklar yaratgan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ularning integratsiyasi orqali o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki emotsiyal va ijtimoiy rivojlanishi ta’minlanadi. Misol uchun, san’at mashg‘ulotlari o‘quvchilarning o‘zini ifoda etish imkoniyatini kengaytiradi, ularning ichki hissiyotlarini aks ettirishga yordam beradi va shuningdek, guruh ichidagi muloqot va empatiya darajasini oshiradi.

Art terapiya metodlari yordamida o‘quvchilar va kattalar stressni boshqarish, ichki ziddiyatlarni bartaraf etish va ruhiy muvozanatni tiklash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ta’lim muassasalarida bu yondashuv psixologik qo‘llab-quvvatlashning muhim usuli sifatida tan olinmoqda. Ularning qo‘llanilishi, ayniqsa, maxsus ta’lim



ehtiyojlari bo‘lgan talabalarda, shaxsiy rivojlanish va o‘z-o‘zini anglash jarayonini kuchaytiradi.

Art terapiya ta’lim jarayonida mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Uni dars mavzusiga mos ravishda yoki qisqa tanaffus sifatida qo‘llash mumkin. Masalan, tasavvurga asoslangan mashqlar orqali talabalarning emotsional yengillik his qilishlari va ijodiy fikrlashlari rivojlanadi:

“Tasavvur qiling, siz dengiz bo‘yidasiz, quyoshning zarrin nurlari ostida sayr qilyapsiz. Dengizning toza havosidan nafas olib, ichingizdagi barcha salbiy fikr va his-tuyg‘ularni chiqarib tashlayapsiz.” Bunday relaksatsion usullar talabalar va o‘quvchilar uchun stressni kamaytiradi, ijodiy tasavvurlarini rivojlantiradi va o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi

Xulosa

Bugungi kunda ART pedagogika ta’lim jarayonida kreativlik, yangilikka intilish, mustaqil izlanish va o‘rganish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi muhim yo‘nalishlardan biriga aylangan. Rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslanib, art pedagogikani umumta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida keng joriy etish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasida san’at va madaniyat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PQ-4481-sonli qaror, 2019-yil 8-oktabr. – URL: <https://lex.uz/docs/>
2. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida Qonuni, 2020-yil 23-sentabr. – URL: <https://lex.uz/docs/>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta’lim-tarbiya tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: PF-6108-sonli farmon, 2022-yil 21-yanvar. – URL: <https://lex.uz/docs/>
4. Сергейва Н. Ю. Арт-педагогика и арт-терапия: к вопросу разграничения понятий // Вопросы психологии. – 2016. – № 5. – С. 12–19.
5. Лебедева Л. Практика арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. – Санкт-Петербург: Речь, 2003. – 256 с.



6. Тұратов Ж. Г. Амалий дарсларда арт педагогиканинг ўрни. – Тошкент: Фан, 2020. – 198 б.
7. Орифжонова Г. Арт-терапия: ўқув қўлланма. – Тошкент: Sharq, 2019. – 172 б.
8. Malchiodi C. A. The Art Therapy Sourcebook. – New York: McGraw-Hill, 2007. – 336 p.7.